

## YOSHLARDA TOLERANTLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI

**Ochilov Ulug‘bek Musurmon o‘g‘li**  
Guliston Davlat Universiteti magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik va psixologik ahamiyatiga oid masalalar ko‘rilgan.

**Kalit so‘zlar:** mehribonlik, mehr-oqibat, xarakter, temperament va xulq atvoridagi o‘zgarishlar, emotsional irodaviy va yosh xususiyatlari, bag‘rikenglik, psixologik muhit, Xalqaro Pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar.

Mustaqil fikrga ega, o‘z millati va Vatani manfaatlarini yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishga qodir barkamol avlodni tarbiyalab, ularda milliy ongini shakllantirish, mustaqil barqaror taraqqiyot uchun xizmat qilishga yo‘naltirish jarayonida milliylikka xos tolerantlik yo‘nalishlarini kengaytirish bugungi kunning talabidir.

Chunki, dinlar orasidagi bir-birini tushunmaslik jamiyatni tanazzulga yetaklaydigan beqarorlikni yuzaga keltirib, uni taraqqiyot omillaridan mahrum qiluvchi illatlardan hisoblanadi. Diniy to‘qnashuvlarning kelib chiqishi har qanday davlatni ham larzaga keltirib, uni taraqqiyot cho‘qqisidan pastga uloqtiradi. Ma’lumki, “Insoniyat tarixiga davlatlar va millatlar bilan jamiyatlarni yuksalishga yetaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g‘oyalar ta’sir o‘tkazib kelgan”.

Tolerantlik (bag‘rikenglik) tamoyillari dunyodagi ko‘pchilik davlatlarning qonun hujjatlarida, insonning asosiy huquqlari va erkinliklari sifatida mustahkamlab qo‘yilgan va xalqaro deklaratsiyalarda o‘z ifodasini topgan. Bu sohada BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi, shuningdek Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt eng asosiy hujjatlar bo‘lib xizmat qiladi. Yevropa Kengashi doirasida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi amal qiladi. Konvensiya yuzasidan tuzilgan va uni ratifikatsiya qilgan davlatlar zimmasiga barcha huquqlarni hech bir kamsitishsiz kafolatlash majburiyatini yuklaydigan va majburiyatlar bajarilmagan taqdirda jazo chorasini qo‘llashni ko‘zda tutadigan 12-bayonnoma kuchga kirdi.

Hozirgi kunda bag‘rikenglik muammosi butun dunyoda dolzarb muammo sifatida tegishli xalqaro tashkilotlarda muhokama qilinmoqda.

Deklaratsiyada milliy, etnik, diniy va til guruhlariga nisbatan zo‘ravonlik, yotsirash va kamsitishning yalpi avj olishiga qarshilik ko‘rsatish lozimligi ta‘kidlandi. Bag‘rikenglik xalqlar o‘rtasida murosaga kelish yo‘lini topish, mojarolarning tinch yo‘l bilan bartaraf etishning muhim sharti ekanligini keng jamoatchilik e‘tirof etmoqda.

Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalasi boshqa davrlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlarning yangi bosqichida ham Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tirof etib kelinmoqda. “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an‘analariga doimo sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e‘tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir” degan edi Prezidentimiz 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlis palatalariga qilgan Murojaatnomasida.

2017-yil 19-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu taklif BMTga a‘zo bo‘lgan 193 ta davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va Bosh Assambleyaning yalpi majlisi tomonidan tarixiy rezolyutsiya qabul qilindi.

Shu bilan birga, zamon shiddat bilan o‘zgarayotgan, kutilmagan joylardan kutilmagan xatarlar paydo bo‘layotgan bir paytda Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasida qilgan ma‘ruzasida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” to‘g‘risidagi tashabbusi jahon hamjamiyati tomonidan nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda tinchlik va taraqqiyotni ta‘minlashga qaratilgan yuksak harakat deb baholandi.

O‘zbekistondagi barqarorlikni hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini mamlakatda istiqomat qiladigan 136 dan ortiq millat va elatning o‘zaro totuvligisiz, rasman ro‘yxatdan o‘tgan 16 diniy konfessiya vakillari o‘rtasida bag‘rikenglik munosabatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tarkibi va miqdori jihatidan qat‘i nazar, har bir millat o‘z madaniy markazini tuzish huquqlariga ega.

Agar 1500 ga yaqin xitoylar, 1300 ta litvaliklar va 200 mingdan kamroq dunganlarning ham milliy madaniy markazlarini inobatga oladigan bo‘lsak, Respublikamizda har bir millat va elat vakillarining milliy qadriyatlari, urf-odat va rasm-rusumlari, tili va madaniyatini saqlash va rivojlantirishi uchun huquqiy, nazariy va amaliy asoslarga keng imkoniyatlar yaratilganligini ko‘ramiz. Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim 7 tilda – o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va

turkman tillarida olib borilmoqda. Yoshlarimizga davlat tomonidan fanlarni o'zlashtirish uchun darsliklar va badiiy adabiyotlar o'z tillarida yetkazib berilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari G ' A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. - Toshkent: Movarounnahr, 2013. - 160 b.
2. Q o'shaev U. Axborot iste'moli madaniyati. - Toshkent: «Extremum-Press» nashriyoti, 2013. - 44 b.
3. Tulepov A. Intemetdagi tahdidlardan himoya. M as'ul muharrir A.Hasanov. - Toshkent: Movarounnahr, 2016. - 672 b.
4. Shermuhammedov K., Karimov J., Najmiddinov J. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. - Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2016. - 224 b.